

HAND/QO'L NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN PROVERBIAL FRAZEMALARING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Xolboeva Iroda Shuxrat qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil tadqiqotchisi

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ

ПОСЛОВИЦ, ОБРАЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ HAND/РУКИ

Холбоева Ирода Шухрат кизи

Независимый исследователь в Термезском университете
экономики и сервиса

COMPARATIVE STUDY OF PROVERBS FORMED BASED ON THE NOUNS HAND/QO'L

Holboeva Iroda Shuhrat kizi

Independent researcher at Termez University of Economics and
Service



E-mail: xolboeva@bk.ru
Orcid: 0009-0006-7840-4429

Annotatsiya: O'zbek va ingliz tillarida qo'l komponentiga ega proverbial frazemalarning chog'ishtirma tahlili o'tkazilgan. Tadqiqot davomida har ikki tildagi frazemalarning ma'no, tuzilish va qo'llanish xususiyatlari o'rganilib, ularning milliy va madaniy xususiyatlari yoritilgan. Maqolada frazemalarning lingvokulturologik mazmuni, ularning kommunikativ funksiyasi va xalq dunyoqarashidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: proverbial frazemalar, hand, qo'l, frazeologiya, madaniyatlararo tahlil, chog'ishtirma tilshunoslik.

Аннотация: Проведен сравнительный анализ пословичных фраз с компонентом руки в узбекском и английском языках. В ходе исследования были изучены значение, структура и особенности употребления идиом в обоих языках, а также выделены их национально-культурные особенности. В статье раскрывается лингвокультурное содержание фразеологизмов, их коммуникативная функция, а также их место в мировоззрении народа.

Ключевые слова: пословицы, рука, фразеология, кросс-культурный анализ, сравнительное языкознание.

Abstract: A comparative analysis of proverbial phraseology with the hand component in Uzbek and English was conducted. During the study, the meaning, structure and usage features of phraseology in both languages were studied, and their national and cultural characteristics were highlighted. The article reveals the linguo-cultural content of phraseology, their communicative function and their place in the worldview of the people.

Key words: proverbial phraseology, hand, hand, phraseology, cross-cultural analysis, comparative linguistics.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Dunyo tilshunosligida inson tana a'zolarini ifodalovchi somatizmlarning kelib chiqishi,

kognitiv-semantik, kognitiv-pragmatik, struktur xususiyatlari to'g'risidagi tadqiqotlar qadimdan to hozirgacha qator tilshunoslarni qiziqtirib kelganligi

kuzatiladi. O‘zbek va ingliz tilshunosligida tilning milliy xususiyatlarini, uning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi, shuningdek, xalqning boy tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etuvchi somatik paremalar tadqiqi bo‘yicha qator ishlar amalgalashirilgan. Somatizmlarning paremalar tarkibida keng qo‘llanilishi ularning turli lug‘at tarkibidagi eng qadimgi qatlamlardan biri ekanligi bilan bog‘liq. Inson qiyofasini, uning holati va xususiyatlarini tasvirlashda tildagi leksik vositalar hamda til tajribasi asosida yaratilgan psixologik obrazlardan foydalanamiz.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ /LITERATURE ANALYSIS). O‘zbek va ingliz tillari materiali asosida turli voqelikni ifodalash uchun ishlataladigan birlıklarning individual xususiyatlari qiyosiy tahlili bilan ko‘pgina tadqiqotchilar shug‘ullanishgan. Tana qismlarining nomlari, ya’ni ko‘pchilik madaniyat va tillar uchun universal hisoblangan somatizmlar so‘z yoki birikma elementlaridir, zero har qanday til va madaniyat egalari fiziologik jihatdan bir xil tuzilgan. Biroq tananing barcha qismlari ham tilda bir xil ahamiyatga ega emas, ularning ba’zilari boshqalardan ko‘ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu holat F.O.Vakk [1], A.A.Nasirov [2], M.N.Asimova [3], M.I.Gadoyeva [4] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Binobarin, *qo‘l/hand* lug‘aviy birlıklari ishtirokidagi maqollar o‘zbek va ingliz tillarida inson hayoti bilan bog‘liq hodisalar (ish faoliyati, kundalik hayot, kishilar o‘rtasidagi munosabatlar kabilar) tavsifi uchun xizmat qiladi.

O‘zbek tilida:

Yalqovning qo‘li qo‘ynidan chiqmas;

Ikki qo‘l qilgan ishni bir qo‘l qilolmas;

Yurti boyning o‘zi boy, mehnat qilganning qo‘li moy;

Dangasaning saratonda qo‘li sovgotar.

Ingliz tilida:

Idle hands work for the devil;

Don’t bite the hand that feeds you;

Fortune never comes with both hands full.

Charity is a virtue of the heart and not of the hand.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Ma’lumki, ingliz madaniyatida *hand* somatizmining faollashuvida mehnatning samarasi ifoda etiladi.

Masalan:

Many hands make light work;

You can’t milk a cow with your hands in your pants;

Dirty hands make clean money;

Success is a ladder that cannot be climbed with your hands in your pockets.

O‘zbek madaniyatida mehnat qilish hayot talabi ekanligi ta’kidlanadi va ushbu hayotiy ehtiyojni ro‘yobga chiqarishning asosiy vositalaridan biri qo‘l ekanligi e’tirof etiladi. Chunki qo‘l harakatisiz bironbir jismoniy mehnatni bajarish va kundalik ehtiyojni ta’minalashning imkoniy yo‘q.

Mehnatsiz ish bitmas, erinchoqning qo‘li yetmas;

Oq qo‘l – osh egasi, kuch qo‘l –ish egasi;

Mehnat qilsang qirga, qaram bo‘lmassan qo‘lga.

Ingliz tilida “*hand*” somatizmi ishtirok etgan proverbial tuzilmalar ba’zan insonga xos sifatlarni (masalan, halollik, vijdonlilik, rahmdillik kabilar) tasvirlaydi:

One hand washes the other;

The hand that rocks the cradle rules the world;

Don’t bite the hand that feeds you;

A clean hand wants no was’ing.

O‘zbek va ingliz tillaridan keltirilgan paremalarda turli obrazlar gavdalansa-da, lekin ular umumiyligi assotsiativ o‘xhashlikka asoslangani kuzatiladi va ushbu o‘xhashlik munosabati aniq denotatlarda mavhumlashuv zamirida yuzaga keladi. Oqibatda ular ifodalayotgan tushunchalar bir-biriga yaqinlashadi.

Cold hands, warm heart;

Full cup, steady hand;

A honey tongue, a heart of gall.

Mazkur sharoitda yuzaga keladigan paremalarning ma’nosida konnotativ bo‘lak emotsiyal, ekspressiv va baho bo‘yoqlariga ega bo‘ladi. Proverbial frazemalarda ifodalanayotgan baho ma’nosini vaziyatlarga ijobjiy va salbiy munosabatni ifodalashdan iboratdir. Biroq paremalar xalq, jamoa ijodi namunasi bo‘lganligi sababli berilayotgan baho ham jamoaviy xarakterga ega.

Masalan: o‘zbek tilida:

Yengil oyoq uzoqqa qo‘shar,

Yengil bosh tuzoqqa tushar;

Eshak minganning oyog ‘i tinmas,

Qo‘sh xotinlining qulog ‘i tinmas.

Ingliz tilida:

A hungry belly has no ears;

A clean hand wants no washing [7].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Paremalar ma’nosida baho ottenkasi ularning nutqiy faollashuvida namoyon bo‘ladi, chunki so‘zlovchi ulardan butun bir avlod fikri, mulohazasi namunasi sifatida foydalanadi. Bunday so‘zlovchi jamoa fikriga qo‘shilayotganini ma’lum qiladi va xususiy, shaxsiy baho jamoa bahosiga tenglashtiriladi. Mazkur jamoaviy fikr so‘zlovchi uchun asos bo‘lib, paremani u yoki bu vaziyatda qo‘llashga turtki beradi.

Paremalar ma’no tuzilishini onomasiologik nuqtai nazardan o‘rganishda ular tarkibidagi birliklarning nominativ qiymatini inobatga olish zarur. Ushbu birliklarning nominativ qiymati shundaki, ular asosiy onomasiologik kategoriylar, yani premetlik va premet, harakat belgilarini aks ettirish imkoniyatiga ega. Onomasiologik kategoriyalarni aniqlash bilan shug‘ullangan chex olimi M.Dokulin va rus tilshunosi E.C.Kubryakovalarning ta‘biricha, “ushbu kategoriylar o‘zaro munosabatida yagona bir tushunchalar sinfining turlicha ifoda topishi, til strukturasida turlicha maqomga ega bo‘lishi kategoriya pag‘onali tasavvurida har xil joy olishi” kuzatiladi [5].

Paremalarning so‘zdan yuqori turadigan ikkilamchi nominativ birlik sifatida shakllanishida turli onomasiologik kategoriylar, belgilar o‘zaro munosabatga kirishadi. Paremaning onomasiologik strukturasi ikki qismidan iborat; u onomasiologik asos (umumi tushuncha) va onomasiologik belgi (kichikroq, aniqlik tushuncha)dan tashkil topib, birinchisi ikkinchisini aniqlashtiradi va konkretlashtiradi [6].

Paremiologik tuzilmalarning onomasiologik strukturasi grammatic qurilish bilan u qadar bog‘liq emas. Ushbu strukturaning asosiy bo‘lagi, odatda, yetakchi unsur sifatida voqelanadi. Masalan, “*One hand washes the other*” paremasining onomasiologik asosida premetlik belgisiga ega “*hand*” so‘zi turadi. “*Gossiping and lying go hand in hand*” paremasida esa ushbu vazifa “*gossiping*” va “*lying*” shakllari zimmasiga tushadi. Qo‘l komponentli proverbial frazemalar xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Ingliz va o‘zbek tillarida bunday frazemalar ko‘p uchraydi va ular xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur maqolada ushbu frazemalar chog‘ishtirilgan holda o‘rganilib, ularning o‘xshashlik va farqlari tahlil qilingan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Umuman olganda, har bir millat maqollarining mazmuniy yadrosini shu millat vakillarining hayotiy tajribalari jarayonida to‘plagan bilimi tashkil qiladi. Ushbu bilim, xulosa kognitiv tilshunoslikning obyekti bo‘lib, maqol tuzilmalarida konsept tarzida gavdalanyadi va xalqning milliy qiyofasini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Вакк Ф.О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – 22 с.
2. Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. Филол.фан. докт. ... дисс. автореферати. – Т., 2016. – 26 б.
3. Азимова М.Н. Сопоставительный анализ соматической лексики и фразеологии таджикского и узбекского языков. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1980. – 26 с.
4. Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи. Филол.фан. докт. ... дисс. автореферати. – Бухоро, 2022. – 70 б.
5. Кубрякова Е.С. Лингвогнезеологические основы языковой номинации// Языковая номинация (Общие вопросы). – М.: Наука, 1977. – С. 99-147.
6. Eckerts R. Zur Nomination im Bereich der Phraseologie// Probleme der Sprachlichen Nomination. – Leipzig, 1982. – P. 37-43.
7. Collis H. American English Idioms. Mc Graw Hill Education; second edition, 2007. – 1128 p.
8. Madalov, N. E. (2020). Linguopsychological changes in an adult when learning a foreign language. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10(90), 417-421.
9. Madalov, N. E. (2019). Types of transformations in the process of translation. In *Наука и инновации-современные концепции* (pp. 111-115).
10. Madalov, N. E., & Abduvaitov, A. S. (2019). Euphemisms in English and their Russian equivalents. In *Наука и инновации-современные концепции* (pp. 59-61).